

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 274 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,
Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
Buzrukhanov Sarvarkhan Munavvarhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan
Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation
Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute
Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE
Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE
Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University
Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan
Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan
Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE
Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute
Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia
Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction
Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey
Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatichiligi.....	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatlari investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirova	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiysi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari..... Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	133
Davlat budgetining soliqli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Cостояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maximov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budgeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari.....	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach.....	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloyevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruva faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Cуть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	

MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



DAVLAT BUDGETINING SOLIQLI DAROMADLARI TAHLILI

ORCID: 0000-0003-4114-9445

Abduraimova Nigora Radjabovna

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat budgetining soliqli daromadlari tahlili amalga oshirildi. 2010–2023-yillarda haqiqatda yig'ilgan to'g'ri soliq tushumlarining zanjir usulida hisoblangan o'sish sur'atlari grafigi asosida tegishli tartibda xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: soliqli daromad, budjet taqchilligi, soliq siyosati, davlat budjeti.

Abstract: The analysis of tax revenues of the state budget was carried out. In the years 2010-2023, the graph of the growth rates of the actual collected tax revenues calculated by the chain method and the conclusions were developed in the appropriate order.

Key words: tax revenue, budget deficit, tax policy, state budget.

Аннотация: Проведен анализ налоговых доходов государственного бюджета. В 2010-2023 годах в соответствующем порядке были построены график темпов роста фактически собранных налоговых поступлений, рассчитанный цепным методом, и выводы.

Ключевые слова: налоговые поступления, дефицит бюджета, налоговая политика, государственный бюджет.

KIRISH

O'zbekistonda soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish orqali davlat budgetining soliqli daromadlari barqarorligini ta'minlash, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda soliq siyosatini takomillashtirish hisobidan budgetning soliqli daromadlarini ko'paytirish, soliq yukini optimallashtirish orqali o'rta muddatda budgetning soliqli daromadlarini o'sishiga erishish, soliq ma'muriyatichiligi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muhim islohotlar olib borilmoqda. "...Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past bo'lgan miqdorda bo'lishini ta'minlash, natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish amaliyotiga o'tish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish, markirovkalash va raqamlashtirish tizimi samarasini oshirish va kengaytirish orqali soliq ma'murchiligi tizimining samaradorligini yanada oshirish" bo'yicha muhim vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi asosida soliq yukini kamaytirish va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishni soddalashtirish maqsadida soliq tizimiga bosqichma-bosqich o'zgartirishlar kiritilib, bugungi kun soliq amaliyotiga joriy etilmoqda. Natijada, soliqlarning soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'siri sezilarli darajada o'zgarib kelmoqda. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish jarayonida shu vaqtga qadar bilvosita soliqlarga katta ahamiyat berilgan bo'lsa, soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi doirasida bevosita soliqlarga ustuvorlik berilmoqda. Demak, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita soliqlarning ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan tizimli o'rganish va tahlil qilish asosida taklif-tavsiyalar ishlab chiqish zarurati paydo bo'lmoqda. Bu o'zgarishlardan asosiy maqsadi soliq yukining kamayishi evaziga soliq to'lovchilar sonini ko'paytirish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish asosida fuqarolar uchun qo'shimcha ish o'rinnarini yaratishdan iborat. Turli mamlakatlarda soliq tizimlari turlicha bo'ladi, chunki mamlakatlar turli xil iqtisodiy xususiyatlarga va soliq tizimidan foydalanishda turli xil strategiyaga ega. Nazariya va amaliyotda soliq tizimining rivojlanishi to'g'ri soliqlar ulushining oshishini anglatadi va bu soliq tizimining progressivligini oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, to'g'ri soliqlar hukumatlar daromadlarini oshirishning adolatli va haqqoniy usuli hisoblanadi. To'g'ri soliqlar bozor hajmi cheklanganda eng samarad daromad manbai bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri soliqlar daromad taqsimotini muvozanatlash va tengsizlik farqini qisqartirish orqali tizimni yanada progressiv bo'lishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi asosida soliq yukini kamaytirish va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishni soddalashtirish maqsadida soliq tizimiga bosqichma-bosqich o'zgartirishlar kiritilib, bugungi kun soliq amaliyotiga joriy etilmoqda. Natijada, soliqlarning soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'siri sezilarli darajada o'zgarib kelmoqda. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish jarayonida shu vaqtga qadar bilvosita soliqlarga katta ahamiyat berilgan bo'lsa, soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi



doirasida bevosita soliqlarga ustuvorlik berilmogda. Demak, davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda bevosita soliqlarning ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan tizimli o'rganish va tahlil qilish asosida taklif-tavsiyalar ishlab chiqish zarurati paydo bo'lmoqda. Bu o'zgarishlardan asosiy maqsad soliq yukining kamayishi evaziga soliq to'lovchilar sonini ko'paytirish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish asosida fuqarolar uchun qo'shimcha ish o'rinnarini yaratishdan iborat. Turli mamlakatlarda soliq tizimlari turlicha bo'ladi, chunki mamlakatlar turli xil iqtisodiy xususiyatlarga va soliq tizimidan foydalanishda turli xil strategiyaga ega. Nazariya va amaliyotda soliq tizimining rivojlanishi to'g'ri soliqlar ulushining oshishini anglatadi va bu soliq tizimining progressivligini oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, to'g'ri soliqlar hukumatlar daromadlarini oshirishningadolatli va haqqoniy usuli hisoblanadi. To'g'ri soliqlar bozor hajmi cheklanganda eng samarali daromad manbai bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri soliqlar daromad taqsimotini muvozanatlash va tengsizlik farqini qisqartirish orqali tizimni yanada progressiv bo'lishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat budgeti daromadlari yoki budget daromadlari – bu davlat tomonidan davlat xarajatlarini moliyalashirish uchun soliqlar va soliq bo'lмаган manbalardan olinadigan puldir. Davlat budgeti daromadlari, shuningdek, davlat xarajatlari davlat budgetining tarkibiy qismlari va hukumatning moliyaviy siyosatining muhim elementidir. Soliqlarni yig'ish hukumatning eng asosiy vazifasidir, chunki daromad davlatning ishlashi, umumiyl manfaatni ta'minlash (jamoat manfaatlarini bajarish uchun ijtimoiy shartnoma orqali) va uning qonunlarini bajarish uchun zarurdir. Daromadning bu zarurati zamonaviy byurokratik davlat rivojlanishining asosiy omili edi.

Mamlakat budgeti davlat tomonidan milliy iqtisodiyotni va moliya tizimini tartibga solishda muhim dastak sifatida foydalaniladi. Bugungi kunga qadar nazariy qarashlarda "budget" tushunchasiga nisbatan yagona yondoshuvlar mavjud emas.

A.V. Vahobov, T.S. Malikovlar "Davlat bor ekan, davlat budgetiga to'lovlar ham mavjud bo'ladi. Lekin budgetga to'lovlarning shakli ma'lum bir bosqichda jamiyatning oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq ravishda o'zgarib boradi", deb tushuntirishga harakat qilishadilar. Ye.A. Sidorovaning tushunchasida "budget, iqtisodiy kategoriya sifatida, davlat hokimiyatining funksiyalarini va vakolatlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan pul jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash, keyinchalik undan foydalanish bilan bog'liq jami iqtisodiy munosabatlarni anglatadi".


Ye.S. Dolganova, N.E. Isakova, N.A. Istominalarning fikricha, "Budget mamlakat moliyaviy tizimida markaziy o'rin egallaydi va u davlatning ajralmas qismi hisoblanadi. Budget nafaqat davlat hokimiyati idoralaring funksiyasini bajarilishini ta'minlovchi moliyaviy asos, balki mamlakat mustaqilligini zamini hamdir". K.S Belskiy va boshqalar "davlat budgetini – davlatning moliyaviy tizimining markaziy bo'g'ini, davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirishning muhim dastagidir", deb tushuntirishga harakat qilishadilar.

A.M. Godin va boshqalarning ta'kidlashicha, "budget – davlatning hamda mahalliy hokimiyatlarning funksiya va vazifalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'larini shakllantirish va sarflash shaklidir". L.I. Yakobsonning fikricha, "o'zining funksiyasini bajarish uchun zarur bo'lgan resurslar davlat tomonidan YAIM hisobidan yig'iladi. Moliyaviy resurslar resurslarning asosiy turi bo'lganligi sababli davlat moliyasi, jumladan, budget va uning daromad va xarajat qismlari milliy iqtisodiyotning ijtimoiy sohasini muhim tarkibiy qismi hisoblanadi".

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


2010–2023-yillarda to'g'ri soliqlar tushumlari o'ziga xos o'sish sur'atlari ega bo'lganligini ko'ramiz, tahlil davrida soliq tushumining variatsiya kengligi +91,03% tashkil qilgan (2016-yilda (111,98%), 2019-yilda (203,02%)). To'g'ri soliq tushumlarining o'sish sur'ati 2023-yilda 113,43% ga teng bo'lgan, bu esa 2011-yilning o'sish sur'atiga qaraganda -13,36% ga past. 2011–2016-yillarda to'g'ri soliq tushumlarining o'sish sur'ati 126,79% (2011-yil) dan 111,98% (2016-yil)ga qadar pasayganligini ko'ramiz. 2017–2019-yillarda to'g'ri soliq tushumlarining ulushi 117,12% dan 203,02% gacha o'sgan. 2022–2023-yillar oralig'ida to'g'ri soliq tushumlarining o'sish sur'atlarida yana pasayish tendensiyasi kuzatilgan (2020-yilda 142,23%, 2023-yilda 113,43%).

2010–2023-yillar oralig'ida mol-mulk solig'i va resurs to'lovlarini tushumlarining o'sish sur'atlari darajasi 171,34% (2018-yil) – 108,01% (2020-yil) oralig'ida tebranib, o'sish sur'atlarining variatsiya kengligi +63,33%ni tashkil qilgan. Keskin o'sish sur'ati 2018-yilda kuzatilgan, ushbu yilda mol-mulk solig'i va resurs to'lovlarini tushumlarining o'sish sur'at 171,34% ga tenglashgan, bu esa 2016-yildagi o'sish sur'atiga qaraganda +47,87% ga ko'p demakdir. 2023-yilda mazkur soliq guruhi tushumlarining o'sish sur'atlarida 2022-yilga nisbatan bir oz jonlanish kuzatildi (2022-yilda 103,80%, 2023-yilda 117,42%).



1-rasm. 2010-2023-yillarda haqiqatda yig'ilgan to'g'ri soliq tushumlarining zanjir usulida hisoblangan o'sish sur'atlari grafigi.

Aylanmadan olinadigan soliq tushumining o'sish sur'ati 2010–2023-yillarda tebranib turganligini ko'ramiz. 2011-yilda aylanmadan olinadigan soliq tushumning o'sish sur'ati 137,72 %ni tashkil qilgan, 2019-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 42,26 %ni, 2020-yilda esa 68.08 %ni tashkil qilgan. Ushbu soliq tushumining o'sish sur'atlari 2011-2022-yillarda 137,72% dan 118,48%ga pasayganligi, 2013-yilda yana 128,64% ga oshganligi, 2015-2017-yillarda 124,83% dan 117,02% ga kamayganligi, 2018-2023-yillarda 136,06% dan 95,81%ga pasayganligi qayd qilingan. 2010–2023-yillar oralig'idagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumining o'sish sur'atlariiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu soliq tushumining o'sish sur'atlarida keskin oshish 2019-yilda sodir bo'lganligini payqaymiz, 2019-yilda ushbu soliq tushumining o'sish sur'ati 2018-yilga nisbatan 178,95 %ni tashkil qilgan.



2-rasm. 2010–2023-yillarda haqiqatda yig'ilgan egri soliq tushumlarining zanjir usulida hisoblangan o'sish sur'atlari grafigi.

2010-2023-yillar davomida qo'shilgan qiymat solig'i tushumining eng yuqori o'sish darajasi 2018-yilda (189,82 %), eng past o'sish sur'ati 2020-yilda (92.21 %) kuzatilgan. Oldingi davrga nisbatan o'sish sur'atining pasayishi 2015-yilda (-10,96 %), 2016-yilda (-4,92 %), 2019-yilda (-68,54 %), 2020-yilda (-29,07 %), o'sish



sur'atining oshishi esa 2018-yilda (+66,32 %) qayd qilingan.

To'g'ri soliqlarning mohiyatini yaxshi tushunish uchun ularni egri soliqlardan farqli jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Egri soliqlar tovar (ish, xizmat)lar bahosiga ustama ravishda belgilanib, ularning bahosini oshishiga olib keladi va iste'molchi xarid qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar bahosi tarkibida bunday soliqlarni to'laydilar. Ma'lumki, bunda iste'molchi tovar bahosi tarkibida to'layotgan soliq miqdori haqida aniq ma'lumotga ega bo'lmaydi. Aslida iste'molchi uchun buning qizig'i ham yo'q. Chunki iste'molchi qancha soliq to'layotganini bilsa ham tovarni arzonroq narxda sotib olish imkoniyati mavjud emas. Egri soliqlar soliq to'lovchilarning daromadlilik darajasini e'tiborga olmaydi. Ular qancha ko'p tarkibida egri soliqlar mavjud tovar (ish, xizmat)larni xarid qilsalar, shuncha miqdorda ko'proq soliq to'laydilar. Shuning uchun egri soliqlar ayrim nashrlarda iste'mol solig'i deyildi.

Nazarmizda, soliqlarning adolatlilagini ta'minlashda to'g'ri soliqlarga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq. Lekin biz yuqorida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, to'g'ri yoki egri soliqlarga ustuvorlik berish kerak degan fikr bildirgan edik. Chunki to'g'ri soliqlarning obyekti yoki bazasi unchalik katta bo'limgan sharoitda soliq yukining ko'proq qismini to'g'ri soliqlarga qaratilishi soliq to'lovchilarning soliqdan qo'chishga bo'lgan moyilligini oshiradi. Ma'lumki, to'g'ri soliqlarni to'lovchilar to'layotgan solig'i haqida ma'lumotga ega bo'ladilar, ya'ni ular soliq yukini to'liq his etadilar. Shu bois o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan davlatlarda yoki rivojlanayotgan davlatlarda to'g'ri soliqlarga qaraganda egri soliqlarga ustuvorlik beriladi. Mamlakat hududlarining soliq salohiyatini oshirish bilan bog'liq muammolarni o'rganish ahamiyati Yangi O'zbekiston sharoitida yanada ortdi. Mamlakatimiz davlat budgetining soliq tushumlarini ko'paytirish yo'llarini o'rganish va izlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq keluvchi, bugungi kunda haqiqatda mavjud bo'lgan soliq salohiyatni ta'minlash bilan bog'liq muammolarni yechimiga xizmat qiluvchi chora-tadbirlarning quyidagi konseptual yo'naliishlarni belgiladik: investitsion muhitni yaxshilash, eksport hajmini oshirish; davlat ro'yxatidan o'tish borasida ko'mak beruvchi bo'linmalar tashkil qilgan holda ularning faoliyati samaradorligini doimiy o'rganib borish; ma'lumot taqdim qiluvchi idoralarning mas'uliyat va javobgarligini oshirish; vakolatiga ega bo'lgan muassasalar bilan tezkor ma'lumotlar almashish, hamkorlikdagi reydlar o'tkazish dasturlarini ishlab chiqish va amalga joriy qilish; soliq huquqbuzarlariga nibatan ta'sirchan choralar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish; o'tkazib beriluvchi soliqli daromadlar miqdorini optimallashtirish. Bugungi kunda hududiy budgetlarni bir xillashtirish zarurati budgetlar o'rtaqidagi transferni talab qiladi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi hamda soliq salohiyatidagi farqi budget transferlari miqdorida o'z aksini topadi. Budgetlarni bir xillashtirishning amalda mehanizmi juda murakkab va nobarqaror hisoblanadi. Shu sababli hududlarning soliq salohiyatini samarali boshqarish o'ta zarur hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ko'rib chiqilgan o'rganishlar va tahlillardan to'g'ri soliqlarning darajasi rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga turlicha va to'g'ri soliqlar uchun yuqori miqdorning belgilanishi o'rta va quiyi qatlam aholisining daromadlariga salbiy ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, har bir soliq turilarining nima maqsadga yo'naltirilganligining jamoatga ochiq ma'lumotlar berib borilishi aholida soliqlarni o'z vaqtida to'lash va soliq ma'muriyatiligiga ishonchini orttiradi. Ushbu jarayon nafaqat mustahkam soliq bazani shakllantirishga, balki iqtisodiy jarayonning yanada barqaror bo'lishiga olib keladi. Xalqaro hamkorlikning ham to'g'ri soliqlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning asosiy sababi ikkiyoqlama soliq solishdagি muammolar, rezident va norezident shartnomalari, fuqarolarning qaysi mamlakat soliq to'lovchisi ekanligi kabi bir qancha savollarga javob topishimiz mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Taufik A.H., Abdul A.K., Jasmine D., Rainah G., Norziana L., Salwa Z. Impact of direct and indirect taxes on economic development: A comparison between developed and developing countries.
2. Cogent Economics & Finance, Taylor & Francis Journals, 2022, vol. 10(1), pages 2141423-214, December. DOI: 10.1080/23322039.2022.2141423 2. Smriti Chand, Supriya Guru 6 Significance of Direct Taxes <https://www.yourarticlelibrary.com/tax/direct-taxes-6-significance-of-direct-taxesexplained/26393>
3. Shrenik Siroya, Linna Zhu, Sherly Pedro Understanding property taxes: What homeowners need to know?
4. Balasoiu N., Chifu I., Oancea M. Impact of Direct Taxation on Economic Growth: Empirical Evidence Based on Panel Data Regression Analysis at the Level of Eu Countries. Sustainability 2023, 15, 7146.
5. Aamresh Bagchi Strengthening Direct Taxes: Some Suggestions. Economic and Political Weekly Vol. 30, No. 7/8 (Feb. 18-25, 1995), pp. 380-384.
6. www.imv.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari.
7. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

